

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ФАРҒОНА ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ФАЛСАФА КАФЕДРАСИ



**ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ
ҚУРИШ ШАРОИТИДА ШАХС МАЪНАВИЙ
МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ
ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИ**

РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АНЖУМАНИ

МАТЕРИАЛЛАРИ

(2017 йил 31-май)

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ

ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ФАРҒОНА ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ҚУРИШ
ШАРОИТИДА ШАХС МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИНИ
ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ
ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИ**

Республика илмий-назарий анжуман материаллари

Фарғона – 2017

Ўзбекистонда фуқаролик жамияти қурилиши шароитида шахс маънавий маданиятини шакллантиришнинг фалсафий омиллари мавзусидаги Республика илмий-назарий анжуман материаллари – Фарғона, ФарДУ, 2017. 371 б.

Масъул муҳаррир:

Фалсафа фанлари доктори, профессор

Тўлқин Абдуллаев

Илмий муҳаррир:

Фалсафа фанлари номзоди, доцент

Иноятхон Арзиматова

Такризчилар:

Фалсафа фанлари номзоди, доцент

Неъматжон Собиров

ТАТУ Фарғона филиали доценти,

фалсафа фанлари номзоди

Бахтиёр Толипов

Тахрир ҳайъати: А.Қамбаров, И.Сиддиқов(қотиб), А.Абдумаликов, А.Ғуломов, Ф.Юлдашев, И.Асатуллоев, Н.Ахмадиев

Фарғона давлат университети Илмий кенгашининг 2017 йил 29-майдаги йиғилиши қарори билан нашрга рухсат этилган. (№ 10 - баённома)

Анжуман материалларида ёритилган маълумотлар ва чиқарилган хулосаларнинг ҳаққонийлигига муаллифлар шахсан жавобгардир

ишбилармон-тадбиркорлар, савдогарлар, бизнесменлар, йирик мулкдорларнинг бири-бирига ишончининг йўқолиши, бошланган ишларнинг охирига етишига тўсик бўлади. Уларнинг ўртасидаги ишонч ҳамжиҳатлиқнинг йўқлиги-гумонсирати, ҳадиксирати бозор муносабатларини обрўсизлаштириб, иқтисодий самарадорлик пасайиб кетиши, ишлаб чиқарувчи ҳамда истеъмолчиларнинг иқтисодий тизимга бўлган ишончи сусайишига олиб келади. Бунинг натижасида иқтисодий ривожланишнинг барқарорлигига путур етади, бозордаги нарх-наво кескин ошиб кетади, коррупция пайдо бўлади. "... Энг ёмони шундаки, иш урнига буйруқбозлик, шикоятбозлик, ўзаро эъдиёт ва низолардан иборат восоғлом вазият вужудга келади, меҳнат самараси йўқолади. Бундай ҳаётнинг бир тумандан бутун вилоятга тарқалади, ишбемизга ҳалқот берадиган тўсқинликка айланиб қолади"

Хулоса қилиб айтганда ёшларнинг маънавий-ахлоқий сифатларини шакллантириш, хусусан, продамлилик, ўз олдига қўйган мақсадга интилиш, яхшини ёмондан фарқлай олишга қўзлаган мақсадга ишонч, атрофдаги бўлаётган воқеа-ҳодисаларга дахлдорлик ҳисси, ҳозирги замон фанларини чуқур эгаллаш борасида мавжуд муаммоларни бартараф этиш, ишонтириш, исботлаш, мунозара, маънавий мулоҳаза юритиш, ибрат-намуна кўрсатиш орқалигина ёшларимизни, келажакимизни яратадиган барқамол маънавий-ахлоқий етук қилиб тарбиялий оламиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тафазкур, 2011. 2-сон, Б.86.
2. И.М. Арзыматова. Шахс эстетик маданиятини юксалишида иқтисодий-маънавий омилларнинг ўрни. Номз. дисс. Автореферати 2011.
3. И.А. Каримов "Миллат қудрати ҳамжиҳатликда". "Халқ сўзи" газетаси. 1999 йил, 27-май

YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASI JARAYONIDA GO'ZALLIKNING TUTGAN O'RNI

*Quvvatov Sardor Isomiddinovich,
SamDU assistenti*

Mamlakatimizda jamiyatning ma'naviy sohasida amalga oshirilayotgan har bir o'zgarishlar, ishlarning pirovard maqsadi barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, belgilab olingan ustavor yo'nalishlarda davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan, keng qamrovli maqsadlarni amalga oshirishda hal qiluvchi o'rin tutadigan reja va vazifalar hisobga olinadi. 2010- yilni "Barkamol avlod yili" deb nomlanishining asosiy sababi ham barcha euzu niyatlarning markazida farzandlarni ham jismoniy, hana ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi ekanligidir. Shuning uchun mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, biz yurtimizning ertangi rivoji yo'lida qanday chuqur o'ylangan dasturlarni tuzmaylik, ba rejalarini bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha ko'p sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo'lsa, yuqori malakali ish kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan etuk mutaxassis yoshlarimiz, desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi.

Chunki har tomonlama yetuk avlodgina murakkab og'ir sinov va qiyinchiliklarni yengish, ko'zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti ekanini anglash qiyin emas.

Ma'lumki, axloqiylik faqat insonning xatti-harakati, qilmishi orqali yuzaga keladi. Odam toki harakatsiz ekan, biz uning na yaxshiligini, na yomonligini bilamiz. Muayyn xatti-harakat sodir qiliyasidan keyingina biz uni yo ezgulik, yo yovuzlik, yo yaxshilik, yo yomonlik sifatida

baholaymiz. Go'zallik esa, o'zini harakatsiz ham namoyon etaveradi.

Bugungi kunda shaxs ma'naviy olamni yuksaltirish, milliy va umuminsoniy, axloqiy va estetik qadriyatlarni qaror toptirish hamda tarbiyani mustahkamlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu ayniqsa, hozirgi murakkab va taxlikali zamonda yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil hurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tarbiyaning oliy shakli bo'lmish estetik tarbiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ana shunday ta'sirning zamonaviy ko'rinishlari – giyohvandlik, axloqsizlik va "ommaviy madaniyat" dir.

Birgina giyohvandlikning inson estetik tafakkuriga, jamiyatdagi estetik qadriyatlarga hamda shaxs estetik kamolotiga salbiy ta'sirini faktik ma'lumotlar bilan izohlash qiyin emas. Axloqsizlik esa turli ko'rinishlarda u yoki bu usullar orqali yoshlar dunyoqarashiga kirib bormoqda.

Estetik tarbiya insonga hayot va san'atdagi go'zalliklardan bahramand bo'lish, ularni baholay bilish hamda o'zi ham go'zalliklar yaratish tuyg'ularini shakllantirishga ko'mak beradi. Ammo, bu jarayon o'z-o'zicha emas, balki bir qator omillar va vositalar ishtirokida amalga oshiriladi. Jumladan, oila, mahalla, maktabdan tashqari muassasalar (bog'cha, gimnaziya), akademik litsey, kasb-hunar kollejlari badiiy-havoskorlik to'garaklari, oliy o'quv dargohlari hamda jamoalari estetik tarbiyani shakllantiruvchi asosiy omillar bo'lib sanaladi.

Estetik tafakkur tarixida go'zallikning ubiatda namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan tadqiq qilinishi bilan bir qatorda insonning jismi va ruhiyatiga daxldor ko'plab fikr-mulohazalar bildirilgan. Ularni asosan ikkiga ajratish mumkin:

1. Inson go'zalligini tashqi ko'rinishga qarab baholash.

2. Go'zallikning insonga xos belgilarini ma'naviy tuyg'ular, axloqiy fazilatlar bilan bog'lab o'rganish.

Yoshlar ijtimoiy borliq, hodisalar, voqe'liklar bag'rida dunyoga kelib ulg'ayar ekan, ijodiyot va ijtimoiy hayot tomonidan in'om etgan ajoyib, hayratomaz nafosat, go'zalliklarning shohidi, guvohi bo'lar ekan, ulardan zavqlanmasdan, bahramand bo'lmasdan, bahri-dili ochilmasdan hayot kechira olmaydi. Shunday ijtimoiy hayot go'zalliklardan yoshlar bahra olgandan keyin uning ko'tarinkilik kayfiyati, badiiy ruhiyati vujudga kelib tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ruhiy-ma'naviy holat yoshlarning estetik tafakkuri shakllanishi va kamol topib borishining mazmun va mohiyatini tashkil etadi. Bunday ruhiy-badiiy holat yoshlarda badiiy asarlarni o'qib chiqqanida yoki tomosha qilayotganida ham paydo bo'lishi mumkin bog'liq.

Milliylik bilan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan estetik ideal timsolida, yuksak estetik didli shaxs "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kirib kelayotgan g'oyasizlik, didsizlik, sifatsizlik va behayolik kabi illatlarga qat'iy tura oladi. Kirib kelayotgan axborotlar va ma'lumotlarni ko'r-ko'rona qabul qilaveradigan, o'zligini yo'qota boshlagan ommaga aylanmaydi. Ta'sir etishning nozik va qudratli quroliga aylangan reklama, moda kabilarga ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi. Ularning orqasida mafkuraviy zabt etish bilan birga iqtisodiy manfaat va maqsadlar ham turishini to'g'ri anglay oladi.

Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotganligiga e'tibor qaratgan holda aytishimiz mumkinki, insoniy go'zallikka doir estetik ideallarni yaratish masalasi hayotiy zaruriyatga aylandi. Endilikda O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan, uning himoyasini ta'minlashga, mustaqilligini mustahkamlashga qodir bo'lgan shaxslarni zamon kishisining ideali sifatida e'tirof etilishi pirovardida inson go'zalligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bois barkamol avlod tarbiyasida go'zallik estetik ideal bilan uyg'unlikda va bir-birini to'ldirish asosida yuzaga keladi.

Ma'lumki, badiiy-estetik ong borliqni, voqe'likni estetik muqoi nazardan anglash, idrok etish ifodasidir. "Inson borliqni nafosat qonunlariga rioya qilgan holda anglaydi... Nafosat qonunlariga rioya etish, ya'ni yaratish qobiliyati inson faoliyatining mohiyat va mazmunini tashkil etadi. Shuning uchun insonning har qanday faoliyatida estetik manba mavjud: inson o'z faoliyati davomida moddiyat bilan birga ma'naviyatga shodlik - sevinch, orzu umid, erk-ozodlik

tuyg'ulariga suyanib yashaydi, moddiy samaralar bilan birga o'zi va boshqalar faoliyatining nafosat mezonlari bilan o'lchanadigan ijtimoiy baholanishiga harakat qiladi". Badiiy-estetik ideal ushbu nafosat qonunlariga tayanar ekan, borliqni go'zallik mezonlari orqali takomillashtirishga intiladi. U shunchaki ifoda, tasvir emas, hatto rang-barang asarlar, ifodalar va tasvirlar ham ideal bo'lmaydi, aks holda har qanday badiiy-estetik qadriyat idealga aylantirilgan bo'lardi. Ideal mavjud voqealiklar ichidan eng yuksagini, eng etugini, eng go'zalini tanlab oladi. Ya'ni badiiy-estetik tip yaratadi. Ushbu tip bir tomondan, mavjud estetik qadriyatlar va borliqni estetik idrok etish talablaridan kelib chiqsa, ikkinchi tomondan, ularni yangi pog'onaga, etuklik darajasiga ko'tarishni nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan shunday xulosa chiqarish mumkinki, yoshlarni estetik tarbiyasida adabiyot va san'atni rolini kuchaytirmay turib, mustaqillik ma'naviy hayotini bir butun tizim sifatida shakllantirib bo'lmaydi. Mustaqillik ma'naviy hayotini yangi zamon talabi asosida isloh qilib borish jarayonida kishilik jamiyatida katta ijtimoiy kuch hisoblangan yoshlarning milliy estetik tafakkurini go'zallik qonunlari asosida shakllantirmay turib ko'zlangan maqsad – fuqarolik jamiyatini barpo etib bo'lmaydi. Chunki, yoshlar kelajakda qurilayotgan fuqarolik jamiyatining komil insonlari bo'lib voyaga etishishlari va uning boshqaruvchilari ham o'zlari bo'lishlari zarur.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И.А. Каримовнинг 2011 йилнинг асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги "2012 йил Ватанимиз таракқиётини янги bosqichga kўtaradigan йил бўлади" мавзусидаги маърузаси
2. Ибрагимов С. Баркамол авлодни шакллантиришда эстетик тарбиянинг ўрни (гўзаллик тушунчаси орқали). // Маънавий янгилашни жараёнларида этика ва эстетиканинг долзарб муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент. Нисшон-ношир. 2011, 83-бет.
3. Умаров Э. Эстетика (нафосатиқунослик). -Тошкент: Ўзбекистон, 1995. - 77 б.

JAMIYAT VA INSON IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDA TABIIY VA IJTIMOYIY OMILLARNING TA'SIRI

SamVXTXQTUMOI assistenti Xoliqov Yunus Orifovich.

*SamDU "O'zbekistonda demokratik jamiyat
qurish nazariyasi va analiyoti" kafedrası
assistenti Abdullayev Sardor Tuychiyevich*

Insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab tirk qolishi, yashashi uchun kurash olib borishdi va o'z boshidan ibtidoiy jamoa tuzimidan tuda, urug', qabila bulib yashab asta sekinlik bilan yashashning mazmunini, irson o'zligini angladi harotning mazmunini tushinib yetdi. Yuqoridagi bosqichlarni shakllanib borishida ma'naviy-axloqiy va tabiiy muhitning o'ru va ta'siri doimiy amalga oshib bordi. Bugungi kunga kelib inson va jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti, ma'naviy-axloqiy muhitida inson omilini to'liq ro'yobga chiqarish va unda ijtimoiy adolat bag'rikenglik, mehmondo'stlik kabi insonparvarlik tamoyillariga amal qilishni taqozo etmoqda. Buning tasdig'ini mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, qat'iy va izchil tustlangani, odamlirimiz o'zgarib, ularning siyosiy va fuqarolik faolligi oshayotgani, ongi tafakkuri yuksalib, yon-atrofda bo'layotgan barcha voqea-hodisalarga daxldortlik tuyg'usi, crtangi kunga ishonchi ortib borayotgani misolida ko'rish, anglash qiyin emas. Bir so'z bilan aytganda xar bir davir va jamiyatda, ma'naviy-axloqiy va tabiiy muxat xar doim ijobiy tasir etib kelganini ko'rishimiz mumkun. Shundan ko'rinish turibdiki O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov akidlaganidek, "O'zbekiston taraqqiyotining

19.Р.Диёров, А.Суюнбоев АҲМАД ЯССАВИЙНИНГ СЎФИЁНА ТАЪЛИМОТИДА КОМИЛ ИНСОН МАСАЛАЛАРИНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ	292
20. У.Хатамова ИНСОНИАТ МАДАНИЙ ТАРАҚҚИЁТИ МАСАЛАСИГА ДОИР	294
21.Хошимова С.Х ЦИВИЛИЗАЦИЯВИЙ ТАРАҚҚИЁТ, ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ВА ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИ	296
22. Ш. А. Тўланбоев ЎЗБЕКИСТОНДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИНГ ЯРАТИЛИШИ	298
23. O.Obidova FUQAROLIK JAMIYATIDA MILLIY G'UYA VA AXLOQIY-ESTETIK IDEALLARNING O'RNI	301
24. Э.Х.Кенжаев МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ИНСТИТУТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	302
25.О.Турсунова, Ч.Бердиқулов ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИ ҚУРИШДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ	305
26. И. Тошпулатов ТАРБИЯНИНГ НАТИЖАСИ	306
27.Н.С.Собиров, К.Х.Сатвалдиев, Д.Қамбарова ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ АХАМИЯТИ	308
28.S.I.Quvvatov YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASI JARAYONIDA GO'ZALLIKNING TUTGAN O'RNI	310
29. Yu. Xoliqov, S. Abdullayev JAMIYAT VA INSON IJTIMOYI TARAQQIYOTIDA TAVBU VA IJTIMOY OMILLARNING TA'SIRI	312
30. Ф. Юлдашев, Н. Юлдашева ГЛОБАЛЛАШУВНИНГ ФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ	314
31.А.С.Мансуров ИЖТИМОИЙ ЖАРАЁНЛАР: ТУШУНЧА, МОҲИАТ ВА ТУРЛАРИ	316
32. Н.Жўраева ЎРТА МАХСУС, КАСБ-ҲУНАР ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДАГИ КАДРЛАР ИННОВАЦИОН-ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТИНИНГ АКСИОЛОГИК АСОСЛАРИ	318
33.Э.Болтабоев, Ш.Тиллаев АЛЛОМАЛАРИМИЗ ИЖОДИДА ИНСОН ЖИСМОНИЙ КАМОЛОТИ МАСАЛАСИ	320
34.И.Исломов, Н. Исломова ЁШЛАРДА ФИКРЛАШ ВА ДУНЁҚАРАШ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ	321
35.Х.Т.Жўраев БАРКАМОЛ ШАХС ТАРБИЯСИДА ФАЗИЛАТЛАР УЙГУНЛАШУВИ МАСАЛАСИ	323
36.Д.Мамажонов, Ш.Қодиров ШАХС ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ АХЛОҚИЙ-АКСИОЛОГИК АСОСЛАРИ	325
37.С.Рахматуллаев ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШДА ТАРИХИЙ ХОТИРАНИНГ ЎРНИ	327
38.А.Сотволдиев, Қ.Пўлатов ШАХС МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ	329
39. И. Сиддиқов, З. Исомиддинов ЎЗБЕКИСТОНДА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ИСЛОҲОТЛАР: КЎЗЛАНГАН МАҚСАДЛАР ВА ВАЗИФАЛАР	331
40. И. Сиддиқов, А. Сайитхонов, Ш. Қодиров ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ИННОВАЦИОН ҲОЯЛАРНИНГ ЎРНИ	334
41.А.Сайитхонов ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИНГ УЙГУНЛИГИ ҲАМДА УНИНГ ШАХС МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИДАГИ ЎРНИ	337